

25-MAVZU: URUG'LANISH

TEST

1.O'simliklarda "Qo'sh urug'lanish"jarayonini qaysi olim nechanchi yilda aniqlagan?

- A)1894-yil Treybom
- B)1898-yil S.N.Navashin
- C)1898-yil K.F.Volf
- D)1778-yil K.Linney

2.Mikropile nima?

- A)urug'pallaning pastki bandi
- B)chang donasi
- C)changchi ipi
- D)chang yo'li

3.Quyidagi atamalarni o'ziga mos ta'rif bilan juftlab ko'rsating?

1.porogamiya; 2.xalazagamiya; 3.mezogamiya;

a.chang naychasi urug'kurtakning yon tomonidan integument orqali murtak xaltasiga kirishi;

b.chang naychasi urug'kurtakning mikropilesi orqali murtak xaltaga kirishi;

c.chang naychasi urug'kurtakning xalaza tomonidagi to'qimalari orqali o'sib kirishi.

4.Endosperm qaysi hujayradan xosil bo'ladi?

- A)markaziy hujayradan
- B)tuxum hujayradan
- C)generativ hujayradan
- D)vegetativ hujayradan

5.Quyidagilarni o'ziga mos keladigan ta'rif bilan juftlab ko'rsating?

1.terminal hujayra; 2.bazal hujayra; 3.oktang hujayra

a.ikkiga bo'lingan hujayraning chang yo'liga qaragan tomoni;

b.ikkiga bo'lingan hujayraning chang yo'liga qarama-qarshi tomoni;

c.ko'ndalangiga va uzunasiga bo'lingan to'rtburchak hujayralarning yana o'zaro bo'linishidan xosil bo'lgan hujayra.

6.Perisperm qayerdan xosil bo'ladi va vzifasi nima?

- A)integumentdan,oziq modda to'planadi;
- B)epikotildan,urug'lanishda ishtirok etadi;
- C)urug'murtakdan,oziq modda to'planadi;
- D)nutsellusdan,murtak uchun oziq boladi.

7.Qaysi qatorda sinergidlarga to'g'ri ta'rif berilgan?

- A)tuxum hujayra yonidagi yordamchi hujayralar;
- B)xalaza tomonda turgan uchta hujayra;
- C)oktang hujayralarning ostki tomonida joylashgan hujayralar;
- D)chang yo'liga qarama-qarshi tomonda turgan hujayralar.

8.Apomiksis nima?

- A)o'z-o'zidan changlanish;
- B)urug'lanmagan tuxumhujayradan yangi organizmning vujudga kelishi;
- C)ikki jinsli gullarda changchilarning urug'chilarga nisbatan ertaroq yetilishi;
- D)embrion ichidagi ikkinchi urug'pallaning erta nobud bo'lishi.

9.Ba'zan embrion xaltasining boshqa hujayralaridan urug'lanmagan diploid sinergidlarda,antipodlardan,endosperma hujayralaridan o'simlikning taraqqiy etishi nima deyiladi?

- A)poliembrioniya;
- B)animofiliya;
- C)apogamiya;
- D)oogamiya.

10.Qaysi qatorda endosperm rivojlanishida farqlanadigan tiplar to'g'ri ko'rsatilgan?

- A)nuklear,brakteoz;
- B)sellyulyar,korpus;
- C)frondoz,brakteoz;
- D)nuklear,sellyulyar.